

UDC: 347.4(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0003-0706-2960

## QARZ SHARTNOMASIGA OID QONUNCHILIK RIVOJLANISHI

**Xursanov Rustam Xolmuratovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
“Fuqarolik huquqi” kafedrasи dotsenti v.b.  
e-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

**Annotatsiya.** Bugungi kunda qarz shartnomasi bo'yicha amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan tartib va taomillar, sohada shakllangan ish muomalasi odatlari hamda bank va moliya sohasida qarz berish faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik FKda nazarda tutilmagan va bugungi moliya bozorining zamonaviy talablariga javob beradigan normalarni shakllantirganligini hisobga olib qarz shartnomasini quyidagi huquqiy belgilarga egaligini ko'rsatmoqda: bir yoki ikki tomonlama, real va konsensual shartnoma, tekin yoki haq evaziga tuziladigan shartnoma. Qarz shartnomasining bunday tavsiflanishi shartnoma shartlari va taraflarning o'zaro kelishuvida belgilangan qarz berish va olish bo'yicha talablardan kelib chiqadi. Jumladan, qarz shartnomasida taraflar qarz summasini kelgusida berish bo'yicha qarz beruvchining majburiyatini belgilashsa, olingan qarz summasi foizlari bilan qaytarilishini kelishishsa, bunday mazmunidagi qarz shartnomasi konsensual, ikki tomonlama (o'zaro) va haq evaziga tuziladigan shartnomalar jumlasiga kiradi. Agar fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi tuzilishi bilan ijro etilsa va olingan qarz summasi foizlarsiz qaytarilishi nazarda tutilsa, bunday qarz shartnomasi real, bir tomonlama va tekinga tuzilgan shartnoma sanaladi. Maqolada qarz shartnomasini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilikni O'zbekiston hududida rivojlanishi tarixi, Avestoda shartnoma shartlariga rioya etilishi hamda islomda qarz munosabatlarini tartibga solinishi tahlil etiladi. Shuningdek, muallif qarz munosabatlarini huquqiy tartibga solishga oid xorijiy qonunchilikni tahlil qilish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflarni ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** qarz, kredit, majburiyat, fuqarolik huquqi, islam huquqi, qarz beruvchi, qarz oluvchi, foiz, shartnoma shakli.

### РАЗВИТИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О ДОГОВОРЕ ЗАЙМА

**Хурсанов Рустам Холмуратович,**  
и.о. доцента кафедры “Гражданское право”  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Действующие порядок и процедуры для договоров займа, обычай делового оборота в отрасли и законодательство, направленное на регулирование кредитования в банковском и финансовом секторах, не предусмотрены в Гражданском кодексе Республики Узбекистан. С учетом сформированности норм, отвечающим современным требованиям финансового рынка, договор займа имеет следующие юридические особенности: односторонний и двусторонний, реальный и консенсуальный договор, возмездный и безвозмездный договор. Такое описание договора займа основывается на условиях договора и требованиях к предоставлению и получению займа, установленных по взаимному соглашению сторон. В частности, если стороны договора займа указывают обязанность заемщика выдать сумму займа в будущем, если они согласны вернуть сумму займа с процентами, то договор займа с таким содержанием входит в категорию консенсуального, двустороннего (взаимного) и возмездного договора. Если договор займа исполняется в момент его заключения между гражданами, и в нем предусматривается возврат займа без процентов, то такой договор займа признается реальным, односторонним и безвозмездным договором. В статье анализируется история развития законодательства о правовом регулировании договора займа на территории Узбекистана, соблюдение условий договора в Авесте, а также регулирование долговых отношений в исламе. Автор также выдвигает предложения по совершенствованию национального

законодательства путем анализа зарубежного законодательства о правовом регулировании долговых заемных отношений.

**Ключевые слова:** заем, кредит, обязательство, гражданское право, исламское право, заемодатель, заемщик, проценты, форма договора.

## DEVELOPMENT OF LEGISLATION ON LOAN AGREEMENTS

**Khursanov Rustam Kholmuratovich,**

Acting Associate Professor of the Department of "Civil Law" of Tashkent State University of Law

**Abstract.** Considering that the current rules and procedures of loan contracts, business practices and legislation governing lending in the banking and financial sector do not provide for Civil code and meet the current requirements of the modern financial market, a loan contract has the following legal features: unilateral or bilateral, valid and agreed contract, contract concluded for free or for a fee. This description of a loan agreement is based on the terms and conditions of the contract and the requirements for lending and borrowing established by mutual agreement of the parties. In particular, if the parties to a loan agreement determine the lender's obligation to pay the loan amount in the future and agree to pay the loan amount with interest, a loan agreement of this content is consensual, bilateral (mutual) and equivalent. This credit contract is a real, unilateral and free agreement if it is made by means of a credit agreement between citizens and the loan amount is repaid without interest. The article analyses the history of the development of legislation on the legal regulation of debt contracts on the territory of Uzbekistan, the observance of contract terms in Avesto, as well as the regulation of debt relations in Islam. The author also puts forward proposals for improving national legislation by analyzing foreign legislation on the legal regulation of debt relations.

**Keywords:** loan, credit, obligation, civil law, Islamic law, lender, borrower, interest, contract form.

Qonunchilik darajasida qarz shartnomasining predmeti tarkibiga qimmatli qog'ozlar va chet el valyutasining kiritilishi ham bugungi zamonaviy moliya bozorining hamda fuqarolar va tadbirkorlar o'rtaida shakllangan odatlardan kelib chiqadi. Zero sudlar tomonidan chet el valyutasida berilgan qarzlarni undirish bilan bog'liq da've ishlari ko'plab ko'rileyotgan bir sharoitda qonunchilikda bu masalaning belgilanmaganligi, ya'ni huquqiy bo'shliqning mavjudligi sudlar tomonidan aniq xulosalarni shakllantirishga imkon bermayapti. Bu masalaning yechimi sifatida esa qonunchilikda chet el valyutasida qarz berish mumkinligi qoidasini kiritish bilan bog'liqdir. Qimmatli qog'ozlarni qarzga berish ham aynan shu jihatlar bilan bog'liqdir. Zero, qimmatli qog'ozlar qarzga berilganda qarz oluvchi o'zining moliyaviy imkoniyatlarini undan olinadigan dividen yoki uni sotish yo'li bilan yaxshilab olishi, keyinchalik kelishilgan muddat kelgach o'z moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilab olgan qarzdor shu turdag'i qimmatli qog'ozni qaytarib berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ayni paytda O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi.

Hozirda qarz shartnomasini tuzish va taraflarning huquq hamda majburiyatlarini belgilashda qarz tilxatidan foydalanish, shartnoma taraflarning manfaatlarini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati qarzni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb tusga ega. Aniq maqsadli qarzni qo'llash, banklar va mikrokredit tashkilotlari tomonidan beriladigan qarzlarni berish tartibini soddalashtirish muhim o'ringa ega.

Bundan tashqari, mamlakatga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirish hamda investitsiya jozibadorligini oshirish maqsadida islom banklari kreditlarini qo'llash uchun muayyan sharoit yaratish, fuqarolar o'rtaida foizsiz qarzni qo'llashga oid talablarni belgilash zarur bo'ladi. Bunda qarz oluvchi fuqaroning qarz summasini shaxsiy ehtiyojlari uchun zaruratdan olganida unga nisbatan foiz belgilash tartibini bekor qilish, tadbirkorlik uchun olingan qarz summasasida esa foydadan ulush olish, foyda ko'rilmaganda esa qarzning o'zini qaytarish tartibotini belgilash bugungi kunda dolzarbdir.

Kishilar o'rtaсидаги о'заро aloqalarda azalazaldan bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro yordam ko'rsatish, bir-biriga g'amxo'rlik qilish

kabi munosabatlar muayyan axloq-odob va insonga xos mehr-muhabbat ruhida shakllangan. Insonlarning bir-biriga o'zaro g'amxo'rliqi va yaqinligining hamda qo'llab-quvvatlashning turli ko'rinishlari va vositalari amal qiladi. Ana shunday vositalardan biri qarz hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida qarz arab tilidan olingen so'z ekanligi va u ma'lum muddat o'tgandan keyin qaytarish sharti bilan berilgan yoki olingen narsa sifatida tavsiflanadi.

Qarz berish va olishning diniy-axloqiy jihatlar qadim zamonlardayoq kishilar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik, qarindoshlik va g'amxo'rlikning ifodasi bo'lib kelgan. Dastlab ana shu maqsadlarda shakllangan shartnomaviy munosabatlar vaqt o'tishi bilan takomillashib, o'zgarib tadbirkorlikning, boylik orttirish va foyda ko'rishning vositasi sifatida ham qo'llanilish darajasigacha yetib kelgan. Qarz berish savob uchun, beg'araz bajarilayotgan amaliyotdan foyda ko'rish, boylik orttirish faoliyati darajasigacha ko'tarilgan bo'lsa, qarz olish muhtojlikdan qutilish, moddiy ahvolini o'nglab olish chorasidan, aldash, firibgarlik yo'li bilan o'zgalarning puli va mulkini o'zlashtirish darajasidagi jinoyat darajasigacha yetib keldi. Bugungi jamiyat taraqqiyotida qarzning mana shu ikki ko'rinishi, ya'ni ijobjiy va salbiy ifodasi yetaricha qo'llanilib kelinmoqda. Bu holat qonunchilikdagi mexanizmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, qarz beruvchi yoki qarz oluvchi tomonidan nohalol va g'irrom usullardan foydalanib ikkinchi tomonni asorat solishga intilish, huquqni qo'llash amaliyotida esa qarzning fuqarolik-huquqiy shartnomasi yoki firibgarlik qilmishi ekanligi borasida aniq to'xtamlarning mavjud emasligi bilan bog'liq.

Zamon taraqqiyotining bugungi darajasi, insoniyatning ilk davridagi kabi "qarzdorlik"ni salbiy oqibat sifatida ko'radi, albatta. Lekin qarz vositasi iqtisodiyotni rivojlantirishga urinish, ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini kam foizli va qulay shartlar asosidagi qarz yordamida qo'llab-quvvatlash, foizsiz qarz yordamida kambag'allikni kamaytirishga urinishlar hozirda dunyoning deyarli barcha davlatlarida keng amal qiladi. Bunda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga maqsadli qarz berish orqali ularning kasb va tirikchilik manbayi bo'lgan kichik tadbirkorlikni amalga oshirishlariga yo'l ochib berishga

urinishlari boshqa rivojlanayotgan davatlardagi kabi O'zbekistonda ham qo'llanilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo'naliшlarining "Yo'l xaritasi"ning "Moliya bozorlarini takomillashtirish va rivojlantirish" – deb nomlanuvchi 2.2-bandida "qarz qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish, ulushli va qarz instrumentlari orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayonini soddalashtirish" hamda "xalqaro ilg'or amaliyotga muvofiqlashtirish maqsadida, jumladan, mikroqarz sohasidagi cheklowlarni bekor qilishni nazarda tutgan holda, mikromoliyalashtirish jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni va me'yorlarni qayta qo'rib chiqish" nazarda tutiligan.

Shu bois, qarz shartnomasiga oid qonunchilikni rivojlanish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qarzga oid dastlabki qoidalar "Avesto" kitobida shakllangan. "Ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal" qat'iy rioya qilinmog'i lozim bo'lgan diniy va dunyoviy xatti-harakatlarning bosh sharti sifatida namoyon bo'lar edi. Bunday uch qoida nafaqat ruhiy-axloqiy tamoyil, balki o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy tamoyil sifatida namoyon bo'lar edi. Birinchi navbatda, mazkur uch talab o'zga shaxslarga zarar yetkazmaslik, ularning huquqlarini tan olish, lafzda turish kabi bugungi turmushda va qonunchilikda qo'llaniladigan atamalarga mos ravishda, insonning o'z sha'niga isnod keltiradigan ishlardan, jumladan, birovga hasadqilishdavn, o'g'rilik, talonchilik, o'zgalar molini o'zlashtirishdan, zinoga berilishdan, birovning dilini og'ritishdan, hayvonlarni qiy Nash va o'ldirishdan o'zini tiyish, bergen so'zning ustidan chiqish, e'tiqodiga sodiq qolish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish kabi insoniy falizatlarni anglatgan [6, 29-b.].

Huquqshunos olim S.B. Boboqulovning fikri-cha, Avestodagi kishilarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarida o'z ahdida turish, berilgan va'daning ustidan chiqish, qasamga sodiq bo'lish, savdo-sotiq ishlaridan majburiyat va shartnomalarga qat'iy amal qilish, omonatni,

ya'ni qarzni o'z egasiga vaqtida qaytarish kabi shartnomaviy munosabatlarning shakli va ayirboshlash turlari haqidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega [7, 7-b.]. Albatta, kishilarning o'z ahdida, bergan va'dasining ustida turishi shunchaki odad qoidasi sifatida emas, balki o'ziga xos muqaddas burch va qoida sifatida amalgalashirilgan.

H. Boboyev va boshqa olimlarning fikriga ko'ra, zardushtiylik iqtisodiy qonunlariga ko'ra ikki xil majburiyat tan olinadi. Birinchidan, tantanali ravishda qasam ichish – "varuna"ga ko'ra kishining biror iqtisodiy majburiyatni olishi yoki olmasligi tushunilgan. Ikkinchidan, bu bitim yoki shartnoma hisoblanib, bunga ko'ra tomonlar o'zaro manfaatdorlik nuqtayi nazaridan biron iqtisodiy munosabat to'g'risida kelishishgan [6, 33-b.]. Ko'rini turibdiki, birinchi holatda bir tomonlama bitim haqida gap ketmoqda. Binobarin, bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun burchlar keltirib chiqaradi (FKning 103-moddasi). Shu ma'noda Avestodagi kishining muayyan iqtisodiy majburiyatni olish yoki olmasligi uning erk-irodasi bog'liq holatda amalgalashirilgan va bunda Avesto burchni majburan yuklashni belgilamagan. Ikkinci holatda esa ikki tomonlama bitimlar, ya'ni shartnomalarni tuzish haqida gap bormoqda va u ham taraflarning o'zaro ixtiyoriy kelishuviga asoslangan. Ikkala holatda ham erk-irodani ifoda etish shakli qasam hisoblangan va ichilgan qasam ilohiy kuch sifatida ham dunyoviy, ham diniy oqibat bilan mustahkamlangan. Ya'ni dunyoviy jihatdan qasamni buzish muayyan bir mulkiy majburiyatning yuklatilishiga olib kelsa, diniy jihatdan qasamga amal qilmaslik og'ir gunoh hisoblangan va shu shaxs jamiyat tomonidan qoralangan.

Bitim va shartnoma shakli sifatida qasam va uning turlari ham Avestoda qat'iy belgilangan bo'lib, bu qasamlar bitim shakli bo'lishi bilan birga majburiyat bajarilishini ta'minlash usuli sifatida ham ahamiyatli hisoblangan. Xususan, "Vadidod"ning IV fargardida shartnomalarning bir-biridan farq qiluvchi quyidagi oltita turi belgilangan:

- birinchisi – so'z berib ahslashish;
- ikkinchisi – qo'l siqib kelishmoqlig;
- uchinchisi – garovga qo'y tikib ahslashuv;
- to'rtinchisi – garovga buqa qo'yish;
- beshinchisi – odamni garovga qo'yib bitishish.

Oltinchisi – serhosil yerdan dalani garovga qo'yib (qilinadigan) ahslashuv turlari bor [3, 25-b.].

Mazkur ahslashishning har biri turi o'ziga xos mulkiy va nomulkiy majburiyatlarni yuklagan. Bu esa, o'z navbatida, qasamni buzishga nisbatan o'ta qat'iy qoidalarning belgilanishi bilan bog'liqdir. Masalan, so'z qasamini buzishga nisbatan shunday qoida o'rnatilgan:

- Kimda-kim so'z qasamini buzsa, bu gunoh uchun giriftor bo'ladigan jazosining andozasi nechukdir?

Ahuramazda javob berdi:

- Uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovoni o'sha qasam bahosining olti yuzatasiga tengdir [1, 117-b.].

Ko'rini turibdiki, qasamni buzish, ya'ni zimmasidagi majburiyatni bajarmaslik kishi uchun o'ta og'ir oqibatlarni keltirib chiqargan. Shu bilan birga, har bir ahslashuv navbatdagi ahslashuv bilan almashtirish orqali majburiyatni bajarmagan shaxs zimmasiga qo'shimcha burch yuklanishi mumkin bo'lgan. Avestoga ko'ra, kimda-kim so'z qasamini yolg'iz so'zning o'zi deb tasavvur etsa, uni qo'l qasami bilan tuzatishi va qo'l qasamining tovonini to'lashi kerak.

Qo'l qasamini qo'y qasami bilan tuzatishi va sigir qasamini uning o'rniga berishi kerak.

Sigir qasamini odam qasami bilan o'zgartirishi va uning o'rniga odam qasamini berishi kerak.

Odam qasamini ekin qasami bilan isloh qilishi va ekin qasamini uning o'rniga berishi kerak [1, 117-b.].

Albatta, Avestoda belgilangan majburiyatni o'zgartirish uslublari bugungi kunda majburiyatlarni yangilash ko'rinishlarida mavjud ekanligini ta'kidlash mumkin. Biroq Avesto zamonidagi majburiyatni bajarmagan shaxsga nisbatan o'ta qat'iy va og'ir, asoratga soluvchi shartlar asosida burchni yangilash uslubi bugungi kundagi insoniyat sivilizatsiyasi va kishilik jamiyatdagi mavjud qadriyatlarga mutlaqo mos kelmaydi. Shunga qaramasdan Avestodagi bir ahslashuv buzilganda uni ikkinchisiga almashtirish bugungi kun fuqarolik huquqida boshqacha ko'irinishda mavjud degan xulosaga kelish mumkin. Ya'ni zamonaviy fuqarolik huquqida majburiyatlarning yangilinishi bilan bekor bo'lishi (FKning 347-modda), qarzni

yangilab, qarz majburiyatiga aylantirish (FKning 742-moddasi) kabi usullar orqali bir majburiyat ikkinchisi bilan almashishi mumkin. Biroq bunda ikkala tomonning roziligi talab etiladi. Avestoda esa bir majburiyatning ikkinchisi almashtirilishi ko'pincha majburiyatni bajarmagan tarafning iltimosi va xohishidan kelib chiqqan. Agar majburiyatni bajarmagan shaxs bajarilmagan burchni navbatdagisi bilan almashtirishni istamasa, kreditorni buni talab qilmagan va, aksincha, Avestoda belgilangan jazo chorasini o'tash bilan cheklangan. Aks holda odatdagagi so'z qasamini bergen kishi oxir-oqibatda eng og'ir qasam ekin qasamiga giriftor bo'lishi va buning uchun juda og'ir jazoni olishiga to'g'ri kelar edi. Shu munosabat bilan Avesto shartnomaga munosabatlardagi zaif tomon huquqini himoya qilish maqsadida qarzdorga majburiyatni bajarmaganlik uchun ikkita variantni taklif qilgan. Birinchisi o'z qasamini (masalan, qo'y qasami) buzganligi uchun belgilangan jazoni o'tash yoki buzilgan qasamni o'rniغا undan og'irroq shartlar asosida navbatdagi qasamni qabul qilish. Bu qarzdorning erk-irodasiga yoki uning mulkiy ahvoliga bog'liq bo'lган. Agar qarzdorning mulkiy imkoniyati yetarli bo'lmasa, uning majburiyatlarini qarindoshlari bajarishi lozim bo'lган yoki navbatdagi qasam unga va qarindoshlariga yuklangan.

Mutaxassislarning fikricha, qarz shartnomasi eng qadimi shartnomalardan biri sanaladi [10, 2-b.]. Qadimgi Yunonistonda nexum formal bitim orqali tartibga solinadigan qarz kreditorga qarz summasini qaytarish bo'yicha majburiyatni bajarmagan qarzdor uchun og'ir oqibatlarni nazarda tutishi bilan ajralib turgan. Qarzdorda kreditorlar bilan hisob-kitob qilish imkoniyati bo'lman holatlarda, kreditor 60 kun mobaynida qarzdorni kishanbadn qilib ushlab turishi va bu vaqt ichida uch marotaba uni bozorida sotib yuborish huquqini qo'lga kiritgan. Agar qarzdorni hech kim sotib olmasa, kreditor uni qul qilib sotib yuborishi, hattoki uni o'ldirishi ham mumkin bo'lган [8, 983–1028-b.]. Nexum shaklidagi qarz bo'yicha majburiyatni bajarmagan qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan ushbu haddan tashqari shafqatsiz jazolar rim huquqida eramizdan avvalgi IV asrgacha, ya'ni kreditorning qarzdorni qullikka sotib yuborish yoki o'ldirish huquqini bekor qilgan va qarzdorni kishanband qilishni taqiqlagan

Peteliya qonuni qabul qilinishigacha amal qilgan (eramizdan avvalgi 326-yil) [15, 129-b.].

Islom huquqida qarz munosabatlariga yo'l qo'yilgan. Qarz berish islom shariatida ruxsat berilgan, mustahab amal sanaladi. Islom huquqining ikkinchi manbayi bo'lmish Sunnada qarz berishning fazilati haqida ko'plab hadislar keltirilgan. Ulardan birida Payg'ambar (s.a.v.)ning "qaysi bir musulmon bir muslimonga ikki marta qarz bersa, u go'yo bir marta sadaqa qilibdi" degan so'zlar keltirilgan [12, 347-b.].

Islomshunos olim S.A. Isxakovning yozishicha, "qarz" aslida arabcha so'z, lekin u majburiyatga aylanganidan so'ng islom adabiyotlarida "dayn" degan so'z bilan ifodalanadi.

Dayn – biron-bir shaxsga qarzga berilgan pul yoki oriyatga berilgan biror mulk bo'lib, u berilgan miqdori va qiymati bilan, ustiga hech qanday mukofotsiz o'z vaqtida qaytarilishi lozim.

Islom mujtahidlari daynga oid quyidagi qoidalarni ishlab chiqqanlar:

*birinchidan*, majburiyat egalarining ixtiyoriy roziliklari (ya'ni, qarz beruvchi va oluvchining o'zaro roziliklari) aks ettirilgan qarz shartnomasi islom huquqiga ko'ra guvohlar ishtirokida yozma yoki og'zaki shaklda tuziladi;

*ikkinchidan*, qarzni qaytarish muddati aniq qilib belgilanadi;

*uchinchidan*, majburiyat faqat qarzga berilgan pul yoki mulkning qarz oluvchi (*muqriz*) qo'liga o'tishi bilan paydo bo'ladi;

*to'rtinchidan*, qarzdorga berilgan muddat oxiriga etishi shart. Modomiki, qarzdorning bankrot (*muflis*) bo'lib qolganligi haqida hech qanday ma'lumot yo'q ekan, hech kim uni muhlatidan oldin qarzni to'lashga majbur qila olmaydi [9, 58-b.].

A.R. Raxmonovning fikricha, muayyan shaxs birovdan qaytarish sharti bilan olgan pul yoki mol qarz hisoblanadi, unda qarzdorlik muayyan hujjalarni bo'yicha yoki taraflar – qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan bitim bo'yicha vujudga kelishi mumkin. Shu bilan birga, islomda garovli va garovsiz qarz, muddatli va muddatsiz qarz farqlanadi. Islomda qarz berish ijobjiy xislat hisoblanadi. Buborada Muhammad (s.a.v.) shunday deganlar: Kimki mo'min odamga ikki marta qarz bersa, ularga bir marta sadaqa bergandek bo'ladi. Yana bir hadislarida: Kimki qiynalib qolgan bir insonga yengillik qilib bersa, Alloh taolo unga

dunyo oxiratida yengillik qilib beradi, – deyilgan. Qarz majburiyatga aylangandan so'ng islom huquqida – "dayn" degan so'z bilan ifodalanadi. Dayn – biron-bir shaxsga qarzga berilgan pul yoki oriyatga berilgan biror mulk bo'lib, u o'z vaqtida berilgan miqdori va qiymati bilan ustiga hech qanday mukofotsiz qaytarishdir [13, 16-b.].

Islom huquqida foiz olish evaziga qarz berish taqiqlanadi va bu qat'iy, imperativ norma hisoblanadi. Islom qonunchiligining asosiy manbasi hisoblangan Qur'oni Karimda Allohma xush kelmaydigan eng og'ir gunohlardan biri sudxo'rlik, lixva (ribo) – berilgan qarz uchun foiz olish, bank va mijoz o'rtasidagi bank krediti shartnomasidan olinadigan bank foizlar, fuqarolik-huquqiy majburiyatni bajarish muddatini o'tkazib yuborganlik uchun foizlar olish hisoblanadi [4, 25-b.].

Islom huquqida o'zaro foiz olish bilan bog'liq bitimlarni tuzishga nisbatan taqiqni ayrim huquqshunos chetlab o'tishga harakat qilishgan. Xususan, mashhur islom olimi Muhammad Abdo (1849–1905) musulmonlarga foiz olishni nazarda tutadigan operatsiyalarda ishtirok etish imkonini beradigan fatvoni e'lon qilgan. U o'zining fatvosini fiqh (amaliy yurisprudensiya)ning oxirgi zarurat bo'lganda taqiqlangan ishga ham ruxsat berilishi prinsipi bilan asoslamoqchi bo'ladi. A. B. Filipsning fikricha, mazkur fatvoning xatoligi shundaki, "oxirgi zarurat hayot va o'lim to'g'risida so'z borgan hollarda amal qiladigan vaziyat bo'lib, u ishbilarmonlik operatsiyalarga hech qanday bog'liq hisoblanmaydi" [16, 171-b.].

Shundan kelib chiqib ko'plab mamlakatlarda an'anaviy Yevropa namunasidagi banklar bilan birga, Qur'oni Karimning bir qator suralarida, jumladan, "Al-Baqara" 2-surasi (275, 276, 278, 279-oyatlar), "Ol-Imron" 3-surasi (130-oyat), "Al-Rum" 30-sura (39-oyat) va boshqalarda nazarda tutilgan imperativ cheklov asosida ish olib boradigan islom banklari amal qiladi.

Ta'kidlash o'rinniki, riboga qarshi asosiy dalil, qarzga olingan summadan foydalanuvchi har doim ham foyda ololmasligi va shu bois ham u foiz to'lamasligiga oid oddiy mantiq hisoblanadi. Foizsiz kredit berish faoliyatini amalgta oshiruvchi islom banklari o'tgan asrning 60 va 70-yillarda Pokiston, Misr va boshqa mamlakatlarda tashkil etilgan. Ular barcha bank operatsiyalari – depozitli, akkreditivli, ssudali operatsiyalarni

amalga oshirish, qishloq xo'jaligi, savdo, sanoat, ijtimoy loyihibalar bilan shug'ullanish orqali yirik tadbirkor-investorga aylanishgan [11, 38-39-b.]. Bunda musulmonlar bankka pul mablag'larini omonatga qo'yishgan va banklar ularga foizsiz qarz berishgan.

Bugungi kunda islom mamlakatlarida o'rtacha 8 ta yoki undan ko'proq islom banklari amal qiladi. Yirik islom banklari sifatida Baxrayn Islom banki, Bruney Islom taraqqiyoti banki, Misrdagi Arab investitsiya banki va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bundan tashqari, islom banklari Germaniya (Al-Baraka investitsiya kompaniyasi, Frankfrt shahri), Lyuksemburg, Buyuk Britaniya va AQShda amal qiladi [2].

Shariat talablari asosida bitim tuzishni istaydigan omonatchilarning talablariga binoan Birlashgan Arab Amirliklarida 2001-yil aprel oyidan boshlab Sharja Milliy Banki islom banki maqomiga o'tdi. Islom davlatlarida fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlari uchun qarz agar haqiqatda qarz oluvchining ehtiyoji mavjud bo'lsa va u kelgusida gunohlar va sudxo'rlikni keltirib chiqarmasa beriladi [5, 26-b.].

O'zbekiston Respublikasida qarz shartnomasiga oid qoidalarni belgilashda ehtiyyotkorlik bilan yondashuv bo'lganligini kuzatish mumkin. Jumladan, islom huquqi amal qiladigan mamlakatimizda o'tmishda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda qarz uchun foiz olish qo'llanilmagan. Masalan, Sadriddin Ayniyning "Doxunda" romanida qarz shartnomasini tuzishga oid quyidagi epizod keltirilgan: 1325 hijriy sanasi tarixida, rajab oyida soqolli chol bo'yi o'rtalari bug'doy rang qo'y ko'zli Avezmurod o'g'li Bozorboy Sarijo'y qozixonasida hozir bo'lib, iqrori shariaticha to'g'ri bo'lgan holda "Men iqrori qilguvchi Rahimshoh o'g'li mulla Azimshohdan 850 Buxoroyi sharif (xudo o'z panohida asrasin) tangasi qarzdor bo'ldim va har qachonki, mendan talab qilinsa, mazkur mablag'ni islom qozisi oldida mazkur qarz berguvchiga to'layman" deb iqror qildi va bu voqealarda jamoa musulmonlar hozir bo'lib turgan holda yuz berdi [14, 34-35b.].

Fuqarolar o'rtasida qarz munosabatlarda foiz olish 1997-yil 1-martdan boshlab kuchga kiritilgan FKda nazarda tutildi. Agar pul mablag'larini qarz va kreditga berish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari o'rtal-

sida qarz berish har doim foiz evaziga amalga oshirilgan bo'lsa, fuqarolar o'rtasida foizli qarz faqat shartnomada belgilangan hollarda qo'llaniladi [17–19].

Bundan tashqari, qarz shartnomasining bir ko'rinishi sifatida kredit shartnomasida, hattoki nasiya tovar sotishda ham foiz olish amaliyoti joriy etilgan. Jumladan, FKning 744-moddasida kredit shartnomasi bo'yicha qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini olishi nazarda tutilgan bo'lsa, 421-moddasi beshinchi qismida oldisotdi shartnomasida sotib oluvchining sotuvchi tomonidan tovar topshirilgan kundan boshlab tovar bahosiga teng bo'lgan summa uchun foizlar to'lash majburiyati nazarda tutilishi mumkinligi belgilangan. Qarz bilan bog'liq huquqi asoslarning rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasining "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunni ham kiritish mumkin. Mazkur qonunda mikroqarz berish bo'yicha mikrokredit tashkilotlarining huquq va majburiyatlar, mikroqarz shartnomasini rasmiylashtirishga nisbatan talablar va qoidalari belgilangan [20].

Qarz shartnomasi narsasi sifatida chet el valyutasi va qimmatli qog'ozlar e'tirof etilishiga oid qoidalari Rossiya Federatsiyasi Grajdaniq kodeksi 807-moddasida belgilangan bo'lib, ular bugungi bozorning real talablaridan kelib chiqib belgilangan hamda amalda keng qo'llanilib kelinmoqda. Masalan, banklar tomonidan berilayotgan mikroqarz shartnomasida bank mikroqarz berish majburiyatini zimmasiga oladi, chukni mikroqarz shartnomasi mijoz bankka murojaat qilishi bilan darhol berilmaydi, balki shartnoma tuzilganidan keyin ma'lum bir muddat

o'tganidan so'ng taqdim etiladi. Qolaversa, chet el valyutasida qarz berish ham bugungi kunda fuqarolar o'rtasida juda ommalashgan. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari uchun qarzolish bo'yicha shartnoma tuzish va uning bajarilishiga umid qilish bu tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiliklarning belgisidir. Lekin amaldagi FKning 732-moddasida ushbu jihatlarning birortasi inobatga olinmagan. Shu sababli mazkur moddani yuqorida taklif etilgan tahrirda qabul qilinishi sanab o'tilgan muammolarni hal qilishda ijobjiy samara beradi. Yuqorida sanab o'tilgan mazkur omillarning barchasi qarz shartnomasining tushunchasi va uni tuzish amaliyotini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli qarz shartnomasiga nisbatan FKning 732-moddasida nazarda tutilgan qoidalarni o'zgartirish lozim bo'ladi. Fikrimizcha, ushbu moddani quyidagi tahrirda belgilash maqsadga muvofiq:

Qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul, turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni yoki *qimmatli qog'ozlarni* mult qilib beradi yoki *berish majburiyatini oladi*, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni (qarz summasini), qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni yoki *shunday qimmatli qog'ozlarni* qaytarib berish majburiyatini oladi.

Xulosa o'rnida qayd etish lozimki, qarz shartnomasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va qarz shartnomasini tuzish hamda amalga oshirishni rasmiylashtirish tartibini soddalashtirish, qarz narsasi bo'lgan obyektlar sonini oshirish zarur.

## REFERENCES

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. A. Mahkam tarjimasi [Avesto. Historical and literary monument. Translation by A. Mahkam]. Tashkent, Sharq, 2001, p. 117.
2. Islami Bank Bangladesh. Available at: <http://islamibankbd.com/>.
3. Avesto: "Videvdot" kitobi. M. Ishoqov tarjimasi [Avesto: The Videvdot book. Translated by M. Ishakov]. Tashkent, Tashkent State Institute of Oriental Studies, 2007, p. 25.
4. Ahkubekova J.D. Nekotorye voprosy, svyazанные с особенностями регулирования обязательств с участием исламских банков [Some questions related to the peculiarities of regulation of obligations with the participation of Islamic banks]. Biznes v zakone – Business in law, 2012, no. 6, p. 25.

5. Madumarov T.T. Mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yurid. fan. dokt. dis. avtoref. [Civil law regulation of microcredit organizations]. Tashkent, 2019, p. 19.
6. Boboyev H., Do'stjonov T., Hasanov S. "Avesto" – Sharq xalqlarining beba ho yodgorligi [The Avesto is a priceless monument of the peoples of the East]. Tashkent, TMI, 2004, p. 29.
7. Boboqulov S.B. Ijara munosabatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari va bozor iqtisodiyoti sharotida ijara shartnomasi konstruksiyalarini tabaqlashtirish muammolari [Historical stages of development of lease relations and problems of stratification of lease agreements in a market economy]. Tashkent, TSUL, p. 7.
8. Didenko A.A. K voprosu o strahovanii finansovyh i predprinimatelskih riskov [On the issue of insurance of financial and business risks]. Politematicheskiy setevoy elektronnyj nauchnyj zhurnal Kubanskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta – Polythematic network electron scientific journal of the Kuban State Agrarian University, 2014, no. 96, pp. 983-1028.
9. Isxakov S.A. Islom fuqarolik huquqi asoslari. O'quv qo'llanmasi [Fundamentals of Islamic Civil Law. Study guide]. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi – IIV Academy of the Republic of Uzbekistan, 2005, p. 58.
10. Kolomiec E.A. Osobennosti obyazatelstva zayma v sisteme finansovyh obyazatelstv [Features of a loan obligation in the system of financial obligations]. Nauchnyj jurnal KubGAU – Scientific journal of the Kuban State Agrarian University, 2015, no. 105 (01), p. 2.
11. Makarova S.M. Sovremennaya ekonomiceskaya doktrina islam: nauchno-analiticheskiy obzor [Modern Economic Doctrine of Islam: Scientific and Analytical Review]. AN SSSR INION, 1983, pp. 38–39.
12. Shavkoniy M. Naylul avtor min ahodisi sayyidil axyor – Payg'ambarimizning hadislaridan ko'zlangan maqsadga yetishish [Achieving the goal of the hadiths of our Prophet]. Vol. 5. Lubnon, 1973, p. 347.
13. Raxmanov A.R. Islom huquqida shartnoma va majburiyatlar hamda milliy qonunchilik. Tarix fan. dokt. dis. avtoref. [Contracts and obligations in Islamic law and national legislation]. Tashkent, 2008, p. 16.
14. Ayniy S. Asarlar. Sakkiz tomlik. Ikkinchı tom. Doxunda. Roman [Works. Eight volumes. The second roof]. Tashkent, Goslitizdat, 1964, pp. 34-35.
15. Tanaga A.N. Vozniknovenie strahovogo obyazatelstva [Occurrence of insurance liability]. Vlast Zakona – The rule of the law, 2014, no. 1 (17), p. 129.
16. Filips A.B. Evolyucija fikha. Islamskij zakon i mazhaby [The evolution of fiqh. Islamic law and madhhabs]. Moscow, Umma, 2012, p. 171.
17. Abdullaev M.K. Dogovor zayma v grajdanskem prave Rossii: teoriya i praktika pravovogo regulirovaniya. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [Loan agreement in Russian civil law: theory and practice of legal regulation. Abstract of the thesis. dis. Cand. jurid. sciences]. Rostov-on-Don, 2006, pp. 6-7.
18. Gritsay N.V. Zaemnye obyazatelstva v grajdanskem prave. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [Debt obligations in civil law]. Moscow, 2010, p. 3.
19. Zinkovskiy M.A. Konstitutsionnye osnovy denezhnogo obrashchenija v Rossijskoj Federacii [Constitutional foundations of monetary circulation in the Russian Federation]. Vlast zakona – The rule of the law, 2014, no. 1, p. 89.
20. Madumarov T.T. Mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yurid. fan. dokt. dis. avtoref. [Civil law regulation of microcredit organizations]. Tashkent, 2019, p. 19.

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**MAXSUS SON / 2021**

**II QISM**

**BOSH MUHARRIR:**

**Nodirbek Salayev**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.